



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



No 8  
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariysi. Pedagogik ta'lilotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariysi va metodikasi (sohalalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariysi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariysi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariysi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariysi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 140 sahifa,  
1-avgust, 2025-yil.

## BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'lifi vazirlari

## BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulسانам Нематовна – Pedagogika fanlari doktori, professor

## TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik

Shoumarov G.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik

Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor

Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor

Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor

Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor

Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nabiiev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qo'idoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor

Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)

Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)

Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)

Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)

Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)

Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent

Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor

Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor

Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor

Gafurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)

Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti

Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor

Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)

Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston

Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)

Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent

Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori

Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Panjayev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'lifi boshqarmasi boshlig'inining birinchi

o'rinnbosari

Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'lifi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulسانам Нематовна – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda

Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

"Maktabgacha va mактаб та'limi" журнali O'zbekiston Respublikasi Oly attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiysi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiysi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va mактаб та'limi" журнали

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №136361

# MUNDARIJA

Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori modeli: tizimli boshqaruv yondashuvi asosida shakllanishi.....	14
Abdullayeva Nafisa Shavkatovna, Maraimova Muxtabar Pulatovna	
O'smirlardagi nevroz holatining psixologik xususiyatlari.....	20
Abduraximov Doniyor Abdu said o'g'li	
Ta'lim siyosati va o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi: xalqaro tajriba va o'zbekistonda amaliyot taqqoslamasi.....	25
Ahadova Mushtariybonu Akmal qizi	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning hozirgi holati va o'ziga xosligi .....	30
Beknazarova Muxlisa O'tkir qizi	
Ta'lim sifatini oshirishda "Barkamol avlod" bolalar mакtablarining zarurati va ahamiyati .....	33
Eshmuminova Oybarchin Botirovna	
Bolalarda nutq kamchiliklari: etiologiya, rivojlanish dinamikasi va erta aralashuv .....	39
Isayeva Mushtariy Alisher qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kitobxonlikka o'rgatish usullari .....	44
Maydonova Saboxat Sadulloyevna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik vositasida badiiy adabiyot namunalariga qiziqishni shakllantirishning o'ziga xos jihatlari.....	48
Mingbayeva Barno Ubaydullayevna	
Pedagogical Characteristics in Enhancing Speaking Skills of Esp Learners in English Language Classes Through Digital Technologies.....	52
Pardayeva Zulaykho Yusubjonovna	
Nutq buzishlarida uchraydigan idrok jarayonining o'ziga xos xususiyatlari .....	55
Ruziyeva Guzal Shuxrat qizi	
"Biologik savodxonlik" tushunchasi zamonaviy ta'lim paradigmasi kontekstida .....	59
Umaraliyeva Mamura Tashxodjayevna	
O'qituvchi faoliyatida kasbiy madaniyatning o'rni .....	65
Umarova Feruzabonu Bobir qizi	
Gamifikatsiyalangan jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining 11–12 yoshli o'quvchilarda emotsional barqarorlikka amaliy ta'siri.....	68
Tojiyev Baxriddin Baxtiyorovich	
O'quvchi yoshlarni milliy qadriyatlar va an'analarga hurmat ruhida tarbiyalashning nazariy asoslari .....	72
Isokov Ravshanbek Ulug'bek o'g'li	
Media va axborot savodxonligi 21-asr pedagoglarning asosiy kompetensiyasi sifatida.....	76
Boypolvonov Barot Djonqobilovich	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining leksik kompetensiyasini takomillashtirishning lingvistik va lingvometodik talqini.....	81
Ismoilova Zarnigor raximjon qizi	
O'quvchi yoshlarni milliy qadriyatlar va an'analarga hurmat ruhida tarbiyalashning nazariy asoslari .....	86
Isokov Ravshanbek Ulug'bek o'g'li	
Pedagogik faoliyatda stress namoyon bo'lishiga ijtimoiy omillarning ta'siri .....	90
Jumanova Ug'iloy Sodiqjonovna	
Oly ta'lim muassasalarida nomutaxassislik yo'nalishlarida ingliz tilini o'qitishni takomillashtirish.....	96
Koshayeva Sansabila Kamiljanovna	
Ijtimoiy-ekologik madaniyatni rivojlantirishda xalqaro tajribalar va ta'lim jarayonining o'rni.....	100
Mamajonova Fotimaxon O'ktamovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirishning ahamiyati .....	105
Murodova Madina Karim qizi	
Elektrotexnika va elektronika fanini o'qitishning zamonaviy metodlari .....	108
Ortiqov Mironshoh Sodiqovich	



Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishda Blended learning texnologiyasini O'zbekiston oliv ta'lim tizimiga tatbiq etish.....	110
Pakirdinova Sharofat Abdumataljonovna	
O'zbekistonda ta'lim sohasi bo'yicha strategik dasturlarni ishlab chiqish istiqbollari.....	115
Quronboyeva Mavluda Bahodirovna	
Xalqaro baholash dasturlari va neyropedagogika .....	120
Sidiqova Yulduz Sobirovna	
6-sinf o'quvchilarida matn bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish metodikasi .....	123
Xamroyeva Dilnoza Jahongir qizi	
Talabalarda pedagogik qobiliyatlarni shakllantirishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati .....	128
Yusupov Ulug'bek Kadirovich	
Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchi ma'naviy kamolotini ta'minlashda motivatsiya uyg'otish texnologiyalarini takomillashtirish.....	132
F. Zaynabuddinov	
Развитие поликультурной компетентности студентов в образовательной среде вуза .....	135
Киреева Эльвина Фларитовна	

# ДОШКОЛЬНОЕ ПРЕ-СCHOOL МАКТАБГАЧА О'QUVCHI YOSHLARNI MILLIY QADRIYATLAR VA AN'ANALARGA HURMAT RUHIDA TARBIYALASHNING NAZARIY ASOSLARI

Isokov Ravshanbek Ulug'bek o'g'li

Namanagan davlat universiteti tadqiqotchisi

**Annotatsiya:** Maqola o'quvchi yoshlarni milliy qadriyatlar va an'analarga hurmat ruhida tarbiyalashning nazariy-metodologik asoslarini yoritishga bag'ishlangan. Unda "milliy qadriyatlar" va "an'analar" tushunchalarining ilmiy talqinlari, ularning tarixiy shakllanish omillari hamda zamonaviy jamiyatdagi o'rni tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** milliy qadriyatlar, an'analar, nazariy asoslar, tarbiya tizimi, vatanparvarlik, madaniy meros, ma'nnaviy yetuklik, pedagogik yondashuv, milliy o'zlik, fuqarolik mas'uliyati.

**Abstract:** The article is devoted to elucidating the theoretical and methodological foundations of educating students in the spirit of respect for national values and traditions. It analyzes the scientific interpretations of the concepts of "national values" and "traditions," the historical factors underlying their formation, and their role in contemporary society.

**Key words:** national values, traditions, theoretical foundations, education system, patriotism, cultural heritage, moral maturity, pedagogical approach, national identity, civic responsibility.

**Аннотация:** Статья посвящена раскрытию теоретико-методологических основ воспитания учащейся молодежи в духе уважения к национальным ценностям и традициям. В ней рассматриваются научные трактовки понятий "национальные ценности" и "традиции", анализируются факторы их исторического формирования, а также их роль в современном обществе.

**Ключевые слова:** национальные ценности, традиции, теоретические основы, система воспитания, патриотизм, культурное наследие, духовная зрелость, педагогический подход, национальная идентичность, гражданская ответственность.

## KIRISH

XXI asr globallashuv davrida har bir xalq o'z milliy o'zligini, madaniy merosini, qadriyat va an'analarini asrab-avaylash hamda kelajak avlodga yetkazish masalasini strategik vazifa sifatida ilgari surmoqda. Bu jarayonda ta'lif tizimi, ayniqsa, umumta'lif makteblari va ulardag'i tarbiyaviy faoliyat o'ta muhim o'r'in tutadi. Chunki yosh avlod ongiga milliy qadriyat va an'analarni singdirish orqali kelajak jamiyatning ma'nnaviy, axloqiy va fuqarolik qiyofasi shakllanadi. Mustaqil O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ham yoshlar tarbiyasni, milliy o'zlikni anglash va tarixiy xotirani asrash masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Bu jarayonda milliy qadriyatlar va an'analar faqat folklor yoki marosim shaklidagi elementlar emas, balki jamiyatning axloqiy me'yorlari, ijtimoiy birdamlik va ma'nnaviy birligini ta'minlovchi fundamental tizim sifatida talqin etiladi. Milliy qadriyatlar va an'analar o'zaro uzviy aloqada bo'lib, ular birgalikda xalqning madaniy identitetini, ijtimoiy ongini va ma'nnaviy qiyofasini shakllantiradi.

Pedagogika nazariyasi nuqtai nazaridan, yosh avlodni milliy qadriyat va an'analarga hurmat ruhida tarbiyalash jarayoni ikki asosiy yo'nalishni o'z ichiga oladi: birinchisi – milliy qadriyatlarini o'quv-tarbiyaviy jarayonga to'g'ridan-to'g'ri integratsiya qilish, ikkinchisi – o'quvchilarni ushbu qadriyatlar asosida faol hayotiy pozitsiyaga ega, vatanparvar, ma'nnaviy barkamol shaxs sifatida shakllantirish. Ushbu ikki yo'nalish bir-birini to'ldiruvchi yagona tizim bo'lib, tarbiya jarayonining samaradorligi ularning uyg'unligiga bog'liq.

Bu jarayonda pedagogning metodik tayyorgarligi, nazariy bilimlari va amaliy ko'nikmalari, shuningdek, ta'lif jarayonida qo'llaniladigan vosita va texnologiyalarning sifat darajasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi [1]. Tarixiy nuqtai nazardan qaraganda, milliy qadriyat va an'analarni yosh avlodga singdirish masalasi qadimdan mavjud bo'lib, u dastlab og'zaki ijod va ustoz-shogird an'analarini orqali amalga oshirilgan. Keyinchalik, yozma manbalar, diniy va dunyoviy maktablar, madrasalar, zamonaviy umumta'lif tizimlari bu vazifani o'z zimmasiga

olgan. Masalan, o'rta asrlarda Markaziy Osiyoda faoliyat yuritgan madrasalarda diniy ilmlar bilan bir qatorda, adabiyot, tarix, falsafa kabi fanlar orqali milliy qadriyat va an'analarni asrashga katta e'tibor qaratilgan. Jadid-chilik harakati davrida esa, milliy qadriyatlarni zamonaviy dunyoqarash bilan uyg'unlashtirishga, yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga intilish kuchaygan<sup>[2]</sup>. Mustaqillik davrida esa, davlat ta'lif standartlarida milliy qadriyatlarni o'quv dasturlariga kiritish, tarix va madaniyat darslarida ularni yoritish majburiy talablardan biriga aylangan.

Globallashuv jarayonlari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi yoshlari dunyoqarashiga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Interfaol o'qitish metodlari – rol o'ynash, dramatizatsiya, tarixiy rekonstruksiya, loyiha asosida o'qitish, debatlar, "case-study" texnikasi – o'quvchilarni dars jarayonida faol ishtirokchi, izlanishga moyil va ijodkor shaxs sifatida shakllantirishga yordam beradi. Masalan, milliy bayramlar, tarixiy shaxslar va voqealar asosida tashkil etilgan dars-sahna ishlari nafaqat bilim beradi, balki o'quvchilarda milliy qadriyatlarga hissiy bog'liqlikni kuchaytiradi<sup>[4]</sup>. Tarixiy hujjatlar, arxiv materiallari, muzey eksponatlariidan foydalanan esa o'quvchilarda real tarixiy tafakkurni shakllantirish, milliy merosni moddiy dalillar asosida anglash imkonini yaratadi. So'nggi yillarda olib borilgan sotsiologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadi, o'quvchilarning milliy qadriyat va an'analarni haqidagi bilimlari ko'p hollarda nazariy ma'lumotlar bilan cheklanib qolmoqda. Bu esa tarbiya jarayonida amaliy faoliyat, jonli muloqot va madaniy tajriba yetarlicha bo'lmayotganidan dalolat beradi<sup>[5]</sup>. Shu bois, ta'lif tizimida milliy qadriyatlar va an'analarni o'rgatishda integrativ yondashuv – ya'ni fanlararo bog'liqlikni kuchaytirish, tarbiyaviy faoliyatni maktabdan tashqari madaniy-ma'rifiy tadbirlar bilan uyg'unlashtirish muhim ahamiyatga ega. Mazkur mavzuning dolzarbli shundan iboratki, milliy qadriyatlar va an'analarni yosh avlodga singdirish bo'yicha nazariy asoslar mavjud bo'lsa-da, ularni zamonaviy pedagogik metodlar bilan uyg'unlashtirgan holda tizimli metodika shaklida ishlab chiqish ehtiyoji saqlanib qolmoqda. Shu sababli ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – o'quvchi yoshlarni milliy qadriyatlar va an'analarga hurmat ruhida tarbiyalashning nazariy asoslarini ilmiy jihatdan yoritish, ularning pedagogik jarayondagi o'rnini aniqlash va metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir<sup>[6]</sup>.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqotning vazifalari – milliy qadriyat va an'analarning ilmiy talqinlarini tahlil qilish, tarixiy-pedagogik tajribalarni umumlashtirish, zamonaviy ta'lif texnologiyalari asosida ularni o'quv jarayoniga integratsiyalash usullarini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Yosh avlodni milliy qadriyat va an'analarga hurmat ruhida tarbiyalash – bu nafaqat pedagogik vazifa, balki milliy-ma'naviy xavfsizlik, jamiyatning ijtimoiy birdamligi va madaniy barqarorligini ta'minlashning strategik yo'nalişidir. Ushbu jarayonning nazariy asoslarini chuqur ilmiy tadqiq etish va amaliyot bilan uyg'unlashtirish ta'lif tizimining milliy mazmunini boyitadi, yosh avlodni tarixiy xotira, madaniy meros va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning kafolati bo'lib xizmat qiladi. Milliy qadriyatlar va tarixiy o'zlikni shakllantirish nazariyasi markazida turadigan ikki nufuzli olim – Anthony D. Smith va Walker F. Connoring yondashuvlari uzuksiz matn orqali integrativ tarzda yoritiladi. Smithning etnosimvolistik nazariyasi milliy identitetni zamonaviy siyosiy ramzlar va kollektiv xotiraga asoslanmagan holda, balki tarixiy ramzlar, mifologiya, afsonalar va madaniy ritual orqali shakllangan dinamik ijtimoiy-madaniy struktura sifatida ko'radi<sup>[7]</sup>. U milliy qadriyatlarni, madaniy genealogiyani va tarixiy reliktlarni tarbiyaviy material sifatida qo'llashning pedagogik salohiyatini ta'kidlaydi. Connor esa Smithdan farqli ravishda, milliy identitetni hissiy, irratsional va sezgi (sentient) asoslar orqali tushuntiradi; u millat tuyg'usini ilmiy faktlar va ramzlardan ko'ra, hissiy bog'lanishga asoslangan ijtimoiy-psixologik jarayon deb hisoblaydi, shu orqali o'quvchilarda milliy fikrlashning emotSIONAL komponentini faollashtirish zarurligini urg'ulaydi<sup>[8]</sup>.

Bu ikki nazariy yondashuv bir-birini to'ldiruvchi tarzda o'zaro integratsiyaga ega bo'lib, metodologik jihatdan tarix fanida milliy qadriyatlar va an'analarni tarbiyalashni amalga oshirishda yordam beradi. Smithning ramzlar asosidagi pedagogik tahlili o'quv xonadagi tarixiy meros va madaniy revolyutsiya bo'yicha sintez uchun nazariy barqaror platforma yaratadi, Connoring hissiy pedagogikasi esa o'quvchilarning milliy empatiya va identifikasiyasini kuchaytiradi. Mazkur integratsiyalangan yondashuv orqali yoshlarni tarixiy faktlarni o'zlashtirishdan tashqari, milliy o'zlik va fuqarolik mas'uliyatini hissiy ravishda anglash imkoniga ega bo'ladi. Shuningdek, zamonaviy ta'lif adabiyotlarda ta'kidlanishicha, tarix ta'limi milliy identitetni shakllantirishda asosiy vositadir. Chunki u o'quvchilarga o'z xalqining milliy reliktlari va ijtimoiy-madaniy qadriyatlarini tahlil qilish, anglash va interaktiv tarzda singdirish imkonini yaratadi. Bu yondashuvlarni pedagogik metodologiyaga joriy etish orqali, an'anaviy tarixiy ta'lif modellaridan ko'ra boy, hissiy-intellektual integratsiyani rag'batlantiruvchi metodlar yaratish mumkin. Umuman olganda, Anthony D. Smith va Walker Connoring nazariyalari integratsiyaluvchi nusxa bo'lib, tarix ta'limida milliy qadriyat va an'analarni tarbiyalash metodikasini nazariy jihatdan mustahkamlaydi. Smithning ramziy-etnik yondashuvi va Connoring emotSIONAL-psixologik modeli birqalikda pedagogik amaliyotda milliy o'zlikni shakllantirishda intuitiv va ilmiy asoslangan metodlarni birlashtirish imkonini beradi.

## TADQIQOT METODOLOGIK QISMI

Mazkur tadqiqot metodologik jihatdan tarixiy-pedagogik tahlil, sotsiologik kuzatuv va so'rov, qiyosiy pedagogik tahlil hamda kontent-tahlil usullariga tayangan holda amalga oshirildi. Unda, avvalo, milliy qadriyatlar va an'analarni o'quvchi yoshlar ongiga singdirishning nazariy-metodik asoslari tarixiy jarayonlar dinamikasi doirasida o'rganildi. O'zbekiston tarixi misolida madaniy meros, milliy ramzlar va tarixiy voqealarning tarbiyaviy salohiyati tizimli tahlil qilindi. Tajriba-sinov ishlari jarayonida interfaol metodlar – rol o'ynash, tarixiy rekonstruksiya, muammoli o'qitish, loyiha asosida ta'lif va debat texnikalari – qo'llanilib, ularning o'quvchilarda milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotira va madaniy merosga ehtirom tuyg'ularini shakllantirishdagi samaradorligi baholandи. Olingan natijalar kontent-tahlil orqali umumlashtirilib, pedagogik amaliyatga tatbiq etish uchun yagona metodik tizimga keltirildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ishlab chiqilgan tarixiy-pedagogik yondashuvlar asosida milliy qadriyatlar va an'analarni o'quvchi yoshlar ongiga singdirish jarayoni interfaol metodlar, tarixiy rekonstruksiya va loyihamiyy ta'lif texnologiyalari orqali tashkil etilganda, ularning milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotira va madaniy merosga ehtirom tuyg'ularini sezilarli darajada oshgan. Sotsiologik so'rov va kuzatuvalar natijasida esa tajriba-sinov guruhi o'quvchilarida vatanparvarlik, fuqarolik mas'uliyati hamda ijtimoiy birdamlik ko'rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan yuqori bo'lib, bu metodikaning pedagogik amaliyatga samarali integratsiyalanganini va ta'lif jarayonida milliy qadriyatlarni uzviy singdirish imkoniyatlarini ilmiy jihatdan tasdiqladi. Anthony D. Smithning etnosimvolik yondashuvi milliy identitetni shakllantirish jarayonida tarixiy ramzlar, miflar, kommunikativ qadriyatlar va merosiy strukturalarni markazga qo'yadi. U millatni subyektiv siyosiy va etsuvuvchi konstruktsiya emas, balki asrlar davomida shakllangan "etnie" deb atagan etnik-kollektiv ijtimoiy birlik sifatida talqin qiladi. Bu birlik milliy qadriyat va an'analarni o'quv-tarbiyaviy jarayonga integratsiya qilishga asos bo'ladi. Smith nuqtai nazarda, tarixiy merosli kontent, xalq og'zaki hikoyalari, milliy bayramlar va ritual ramzlar tarbiya jarayonining nazariy tamoyillari bo'lib xizmat qiladi. Ularning pedagogik tahliliiga urg'u beriladi, chunki ular o'quvchilarda kollektiv xotira va madaniy identifikatsiyani shakllantirishga xizmat qiladi. Shunga qaramay, Walker Connor ushbu ramzlar yondashuvining haddan tashqari kognitiv, strukturaviy va anklilogik ekanini bildiradi. Connor milliy identitetni hissiy-irratsional ijtimoiy-psixologik jarayon sifatida talqin etib, millat tuyg'usi faktlar va ramzlar bilan emas, balki sezgi va hissiyot orqali shakllanishini ta'kidlaydi. U millatni "uzoq kengaytirilgan oila" sifatida ko'rib, milliy o'zlikni anglashda hissiy identifikatsiya va irratsional bog'lanishlarni aslo inkor etmaydi. Bunday yondashuv tarix ta'limida milliy qadriyatlarni faqat faktologik jihatdan emas, balki pedagogik-hissiy komponent orqali ham yetkazishni talab qiladi. Bu ikki olim o'rtaidagi konseptual tafovut metodologik integratsiya uchun boy maydon yaratadi: Smithning incelikli ramziy-tarixiy material tahlili bilan Connoring hissiy-emotsional komponenti integratsiyalangan kompleks modelni tashkil etadi. Tarix darslarida milliy qadriyatlarni o'rgatishda ramziy materiallar bilan hissiy pedagogik elementlar uyg'unlashtirilsa, o'quvchilarda chuqur identifikatsiya va tarixiy-madaniy anglash karkasini shakllantirish mumkin. Bu esa nafaqat bilim olish, balki milliy o'zlik tuyg'usini hissiy-intellektual darajada shakllantirishga zamin yaratadi. Shuningdek, etnosymbolizm va Connoring hissiy millatchilik yondashuvlariga tanqidiy qarashlar ham mavjud. Masalan, Umut Özkiprimli Smithning etnosymbolizm modelini "nostalgik konstruktsiya" deb baholaydi. U milliy tarixiy ramzlarini idealizatsiya qiladi va retrospektiv nostalgiya orqali milliy identitetni konstruktsiya qilishni tanqid qiladi. Bu tanqidlar Smith yondashuvida tarixiy faktlar ustidan emotsiyalromantizm hukmronlik qilishi mumkinligini ko'rsatadi [9].

Bunga javoban, Connoring modelida hissiy asos ko'proq tarbiyaviy konteksti mustahkamlaydi, ammo bu tizim ham kontekstga qarab irratsional hissiy manipulyatsiya xavfini tug'diradi [10]. Shu nuqtai nazardan, pedagogik metodologiyada bu ikki yondashuvni sintez qilish metodik jihatdan eng maqbul yechimdir. Tarix darslarini tashkil etishda ramziy-hissiy kompleks metodlar – dramatizatsiya, rol o'ynash, tarixiy rekonstruksiya, tarixiy hikoya loyihalari – orqali o'quvchilar milliy merosni sezgi va tafakkur asosida anglaydilar. Bu metodik kombinatiya orqali o'quvchi nafaqat tarixiy ma'lumotlarga ega bo'ladi, balki milliy qadriyat va an'analarni o'z tushunchasi, hissiy identifikatsiyasi va madaniy xotirasi orqali qabul qiladi. Anthony D. Smith va Walker Connor o'rtaidagi ilmiy polemika tarix ta'limida milliy qadriyatlar va an'analarni tarbiyalash metodikasini nazariy jihatdan boyitadi. Smithning ramziy-tarixiy asoslari va Connoring hissiy-psixologik komponentlarini pedagogik amaliyotda uyg'unlashtirish orqali tarix darslarining tarbiyaviy salohiyatini maksimal darajaga ko'tarish mumkin.

## XULOSA

Ushbu maqolada o'quvchi yoshlarni milliy qadriyatlar va an'analarga hurmat ruhida tarbiyalashning nazariy asoslari yoritilib, ularning pedagogik jarayonga uzviy integratsiyasi samarali metodlar orqali asoslab berildi. Tadqiqot natijalari milliy qadriyatlarni tarixiy-pedagogik yondashuv, interfaol metodlar va hissiy-intellektual inte-

gratsiya orqali singdirish o'quvchilarda milliy o'zlikni anglash, madaniy merosga ehtirom va fuqarolik mas'uliyatini rivojlantirishga sezilarli hissa qo'shishini ko'rsatdi. Mazkur yondashuvlar ta'lif amaliyotida milliy-ma'naviy tarbiyani kuchaytirish uchun samarali konsepsiya sifatida tavsiya etiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. G'aybullayev A.A. Yoshlarni milliy qadriyatlarga yo'naltirilganligining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari // Inter Education & Global Study. – 2024. – № 5. – С. 552–563.
2. Atxamjonovna B.D., Shohbozbek E. Respublikamizda maktabgacha ta'limda yoshlarga ma'naviy dunyoqarashni shakllantirish // Global Science Review. – 2025. – Т. 4. – № 5. – С. 221–228.
3. Xasanov Z. va boshq. O'zbekiston yoshlarini ta'lif va tarbiyasini yuksaltirishda milliy-ma'naviy va axloqiy mezon hamda me'yorlarning ahamiyati // Harbiy Pedagog. – 2024. – Т. 1. – № 2. – С. 7–12.
4. Ibragimova R. Milliy udumlar – milliy qadriyatlarni shakllantiruvchi mezondir // Farg'onan Davlat Universiteti. – 2023. – № 2. – С. 120.
5. Ahmedova D. Yoshlarning ma'naviy-axloqiy qiyofasining shakllanishiga tarixiy jarayonlarning ta'siri // Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук. Actual Problems of Humanities and Social Sciences. – 2025. – Т. 5. – № 5. – С. 173–177.
6. Abdusattarovna O.X., Shohbozbek E. Ijtimoiy falsafada zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida sog'lom turmush tarzini shakllantirish // Global Science Review. – 2025. – Т. 4. – № 5. – С. 175–182.
7. Xolmatova A., Xayrullaeva X. Milliy qadriyatlar yoshlar tarbiyasidagi o'rni // Pedagogs. – 2025. – Т. 81. – № 1. – С. 41–46.
8. Mamadjonovich T.M. Yoshlarni tarbiyalashda milliy qadriyatlarimizning roli // Pedagogik Tadqiqotlar Jurnalı. – 2025. – Т. 3. – № 1. – С. 724–728.
9. Abdulla o'g'li M.T. Milliy g'oyani shakllantirishning yoshlar kamolotida tutgan o'rni // Scientific Approach to the Modern Education System. – 2025. – Т. 4. – № 37. – С. 248–250.
10. Komiljon o'g'li O.U. va boshq. Kelajak avlodini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash // Formation of Psychology and Pedagogy as Interdisciplinary Sciences. – 2024. – Т. 3. – № 31. – С. 43–46.

- 13.00.00** Pedagogika fanlari
- 13.00.01** Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'lilotlar tarixi
- 13.00.02** Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03** Maxsus pedagogika
- 13.00.04** Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05** Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06** Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07** Ta'limda menejment
- 13.00.08** Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09** Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00** Tarix fanlari
- 19.00.00** Psixologiya fanlari
- 01.00.00** Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00** Kimyo fanlari
- 03.00.00** Biologiya fanlari
- 09.00.00** Falsafa fanlari
- 10.00.00** Filologiya fanlari
- 11.00.00** Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №8**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.